

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**



**O'ZBEK TILI  
FAN SILLABUSI**

<b>Bilim sohasi:</b>	400 000	Biznes, boshqaruv va huquq Xizmatlar
	1000 000	
<b>Ta'lim sohasi:</b>	410 000	Biznes va boshqaruv Xizmat ko'rsatish sohasi
	1010 000	
<b>Ta'lim yo'nalishlari:</b>	60410100	Iqtisodiyot
	60410200	Buxgalteriya hisobi
	60410500	Moliya va moliyaviy texnologiyalar
	60410600	Bank ishi
	60410800	Menejment
	60411200	Marketing
	61010100	Turizm va mehmondo'stlik

**SAMARQAND– 2024**

## Modul / FAN SILLABUSI



<b>Fan nomi:</b>	O'zbek tili
<b>Fan turi:</b>	Majburiy
<b>Fan kodi:</b>	O'RT1104
<b>Yil:</b>	1
<b>Semestr:</b>	1 yoki 2
<b>Ta'lim shakli:</b>	Kunduzgi va kechki
<b>Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:</b>	120
Ma'ruza	-
Amaliy mashg'ulotlar	48
Labaratoriya mashg'ulotlari	-
Seminar	-
Mustaqil ta'lim	72
<b>Kredit miqdori:</b>	4
<b>Baholash shakli:</b>	Imtihon
<b>Fan tili:</b>	O'zbek

Fan maqsadi (FM)	
<b>FM1</b>	Ushbu sillabus asosida talabalarning kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarida faoliyat olib borishi uchun o'qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida ularda fan bo'yicha egallangan bilim, ko'nikmalarini muloqot va ish faoliyat jarayonida qo'llash malakasini shakllantirishga qaratiladi.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
O'zbek tili	
Davlat tilida ish yuritish	
Tilshunoslik	

Ta'lim natijalari (TN)	
	<b>Bilimlar jihatidan:</b>
<b>TN1</b>	-nutqiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bilimga ega bo'lishlari kerak;
<b>TN2</b>	og'zaki va yozma nutqda sohaviy terminalarni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish kerak;
<b>TN3</b>	sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan, elektron hujjatlarni to'ldirish va rasmiylashtirish ko'nikmalarini shakllantirish to'g'risida bilimga ega bo'lishlari kerak;



TN4	kasbiy terminologiyani, og'zaki va yozma nutq xususiyatlarini bilish va va rasmiylashtirish ko'nikmalarini shakllantirish kerak;
	<b>Ko'nikma jihatidan:</b>
TN5	o'zbek adabiy tili me'yorlari nutq uslublari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishadi;
TN6	matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish , kasbiy muloqot yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishadi
TN7	Sohaga oid matnlarni tahlil qila oladi hamda sohaga oid terminlarni izohlay oladi.
TN8	Ish yuritish tili va uslubini o'rganadilar, o'z mutaxassisligidan kelib chiqib hujjat turlariga namunalar yoza oladilar.

#### Fan mazmuni

#### Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A)

A1	Og'zaki nutq: Vatan – eng ulug' maskan Grammatika: Tilshunoslik bo'limlari	2
A1	Og'zaki nutq: Vatan – eng ulug' maskan Grammatika: Tilshunoslik bo'limlari	2
A2	Og'zaki nutq: O'zbek tili - Davlat tili Grammatika: O'zbek tilining yangi imlo qoidalari	2
A3	Og'zaki nutq: Davrimizning global muammolari Grammatika: So'z turkumlari haqida ma'lumot (Mustaqil va yordamchi so'zlar. Alohida guruhdagi so'zlar)	2
A4	Og'zaki nutq: Institutim bilan faxrlanaman Grammatika: Otlarda egalik va kelishik qo'shimchalari. Otlarning turlanishi	2
A5	Og'zaki nutq: Yetuk mutaxassis bo'laman Grammatika: Gap bo'laklari	2
A6	Og'zaki nutq: Zamonaviy dunyoda ta'lim Grammatika: O'zbek tilida so'z yasalishi	2
A7	Og'zaki nutq: Milliy qadriyatlar - millat iftixori Grammatika: Fonetik o'zgarishlar	2
A8	Og'zaki nutq: A.Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi Grammatika: Nutq uslublari. Badiiy va ilmiy uslub. Ularning o'ziga xos xususiyatlari	2
A9	Og'zaki nutq: Ommaviy axborot vositalari Grammatika: Publitsistik va rasmiy-idoraviy uslub. Ularning o'ziga xos xususiyatlari	2
A10	Og'zaki nutq: Kasb etikasi Grammatika: So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so'zlar	2
A11	Og'zaki nutq: Salomatlik – tuman boylik. Grammatika: Sohaviy terminlar va ularning qo'llanilishi	2
A12	Og'zaki nutq: Muzeylar - o'tmish va kelajak orasidagi ko'prik Grammatika: O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. (Diktant)	2
A13	Og'zaki nutq: Institutimiz kutubxonasi Grammatika: Maqola va uning turlari	2
A14	Og'zaki nutq: Hayot mening tasavurimda Grammatika: Matn yaratishning o'ziga xos xususiyatlari.	2
A15	Og'zaki nutq: XXI asrda innovatsiyalar Grammatika: Taqriz va annotatsiya matni	2



A16	Og'zaki nutq: Internet hayotimizda Grammatika: O'zbek leksikografiyasi. Lug'atshunoslik. Lug'atning turlari haqida.	2
A17	Og'zaki nutq: Kitob mutolaasi Grammatika: So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari	2
A18	Og'zaki nutq: Muomala odobi Grammatika: O'zbek tili leksikasining boyish manbalari	2
A19	Og'zaki nutq: O'zbekiston sporti Grammatika: Intervyu olish va intervyu berish qoidalari	2
A20	Og'zaki nutq: Ustoz – otangday ulug' Grammatika: Insho haqida umumiy ma'lumot	2
A21	Ish yuritish tili va uslubi. Hujjat turlari va xususiyatlari	2
A22	Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari. Shartnoma, guvohnoma, yo'riqnoma, nizom-ustav Farmoyish hujjatlari: Buyruq, buyruqdan ko'chirma, ko'rsatma, farmon, farmoyish	2
A23	Ma'lumot-axborot hujjatlari: Ariza, bayonnoma, bildirishnoma, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, tavsifnoma, tavsiyanoma, dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma	2
A24	Xizmat yozishmalari: Iltimos xat. Kafolat xati, so'rov xati, ilova xat, tasdiq xat Diplomatik va tijorat yozishmalari	2
<b>JAMI:</b>		<b>48</b>

<b>Mustaqil ta'lim (MT)</b>		
1	"A.Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi" mavzusida ijodiy matn yaratish.	2
2	Farmoyish hujjatlari va ularning turlari	2
3	Ishonchnoma. Tilxat. Tushuntirish xati	2
4	Dalolatnoma. Ma'lumotnoma	2
5	Majlis bayoni. Hisobot	2
6	Xizmat yozishmalari. Xatlar	2
7	Taqdimot tayyorlashda nutqiy ko'nikma	2
8	Ish yuritish tili va uslubi	2
9	Hujjatlar yig'ma jildini shakllantirish	2
10	"Kasbim-faxrim" mavzusida monologik matn yaratish.	2
11	Ma'lumot-axborot hujjatlari haqida umumiy ma'lumot	2
12	Soha muzeylari	2
13	Qisqacha o'zbekcha –ruscha ish yuritish lug'atini yaratish.	2
14	Ish yuritish hujjatlaridan namunalar tayyorlash	2
15	"Mutaxassislarning odob va nutqi" mavzusida dialogik matn tuzish	2
16	Fan rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri haqida referat tayyorlash	2



17	Institutda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan tayyorlash	reportaj	2
18	Majlis bayoni, bayonnoma, bayonnomadan ko'chirma		2
19	Ixtiyoriy reklama matnini tahlil va tahrir qilish		2
20	Hujjatlarni idoraviy arxivga topshirishga tayyorlash		2
21	"Axborotdan unumli va o'rinli foydalanish" mavzusida makromatn yaratish		2
22	"Diplomatik va tijorat yozishmalari" mavzusida taqdimot nutqi tayyorlash.		2
23	"Diplomatik yozishmalarning turlari" mavzusida taqdimot nutqi tayyorlash.		2
24	Tijorat yozishmalari mavzusida refarat matni tayyorlash		2
25	Oliy ta'lim terminlari lug'atini tuzish		2
26	Egallayotgan sohangiz bo'yicha ilmiy maqolaga berilgan maqolaga taqriz yozish		2
27	"Yetuk mutaxassis" bo'laman mavzusida esse yozish		2
28	"Ma'lumot-axborot hujjatlari" mavzusida taqdimot matni tayyorlash		2
29	Badiiy nutq uslubi. O'zbek she'riyati. "Sevimli she'rim" mavzusida esse yozish.		2
30	Axborot xati matni tayyorlash		2
31	"Kelajak – bilimli yoshlar qo'lida" mavzusida esse yozish.		2
32	"Tarix va zamonamiz" mazusida taqdimot tayyorlash.		2
33	Amir Temur o'gitlaridan namunalar aytib berish.		2
34	"Giyohvandlik – umr zavoli" mavzusida taqdimot tayyorlash.		2
35	"Internet hayotimizda" mavzusida taqdimot tayyorlash.		2
36	"Kasbiy nutq madaniyati" mavzusida mikromatn tuzing va uni makromatnga aylantiring.		2
	<b>JAMI:</b>		<b>72</b>

**Izoh:** O'zbek tili fanidan mustaqil ta'lim mashg'ulotlari bo'yicha uslubiy ko'rsatma alohida nashrda ko'rsatilgan

Asosiy adabiyotlar	
1.	M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov, Y.Odilov. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo'llanma. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent -2020.
2.	N.Husanov, R.Xo'jaqulova, N.Dilmurodova "O'zbek tili" (Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlarining bakalavr bosqichi umumiy guruh talabalari uchun), Toshkent-2020.530-bet.
3.	H.Berdiyev, Z.Ashurova. O'zbek tili. (O'quv qo'llanma.).-Samarqand: SamDCHTI nashri.2020.-186 bet.
4.	Z.Ashurova. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi. (o'quv qo'llanma)-SamiSI-2021-y.96-bet.
5.	D.B.Yuldasheva "O'zbek tili" (o'quv qo'llanma), Samarqand, SamiSI "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024 – 356 bet.
Qo'shimcha adabiyotlar	
1.	"Davlat tili haqida"gi qonun // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. – Toshkent.: 1996, 20-30 b.



2.	O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent, 2020.
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni /O'zR KHT, 2017, 6-son, 70-modda; 354-modda
4.	O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli).Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005-2008.
5.	Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N.Ish yuritish (amaliy qo'llanma) 2014.Toshkent : O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014. 456-bet.
6.	R.Rasulov, Q.Mo'ydinov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. (O'quv qo'llanma) Toshkent-2012.116-bet.
7.	N.M.Mahmudov, A.P.Madvaliyev, N.Mahkamov. O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidolari. Toshkent. O'zbekiston-2015.86-bet
8.	Sh. Mustafakulov, O.Raximberdiyev, M. Egamberdiyeva "Iqtisodiy atamalarning izohli lug'ati", Toshkent-2019. 496-bet.

**Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:**

**a) 5 baho olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritib olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharhlay bilsa.

**b) 4 baho olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektga puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarni o'zlashtirgan



bo'lsa.

c) 3 baho olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;
- bayon qilish ravon bo'lmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

d) quyidagi hollarda talabanning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.
- 

**Agar talaba hemis tizimida baholanganda quyidagicha baholanadi.**

0-59 ballgacha 2 baho, 60-69 ballgacha 3 baho,  
70-89 ballgacha 4 baho, 90-100 ballgacha 5 baho

### Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

<b>Mualliflar:</b>	Yuldasheva Dinoza Bekmurodovna – “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası dotsenti; Ashurova Zulxumor Shodiyevna - “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası dots. v.b.
<b>E – mail:</b>	<a href="mailto:dilyuldasheva83@gmail.com">dilyuldasheva83@gmail.com</a> .
<b>Tashkilot:</b>	SamISI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası
<b>Taqrizchilar:</b>	U.M.Rashidova - Sharof Rashidov nomidagi SamDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası dotsenti; A.S.Adilova – SamISI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.n.

Mazkur Sillabus institut o'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil 29 avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ 1)


Mazkur Sillabus "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasining 2024-yil 28 avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

**O'quv-uslubiyat bo'limi boshlig'i**




**I.E. Shodmonov**

**Kafedra mudiri**



**D.B. Yuldasheva**

**Tuzuvchi**



**D.B. Yuldasheva**